



**BUGUNGI ADABIY JARAYONDA NASR**

**Kidirbayeva Marjona**

Ulug'bek Hamdam ijodi misolida

O'zMPU Filologiya Fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi 4-kurs talabasi

[marjonakidirbayeva@gmail.com](mailto:marjonakidirbayeva@gmail.com)

**Nargiza To'xtayeva**

Ilmiy rahbar:

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20196273>

**Annotatsiya:** Ushbu maqola zamonaviy o'zbek nasrining rivojlanish tendensiyalarini, badiiy-estetik o'ziga xosliklarini va zamonaviy adabiy jarayondagi o'rnini tadqiq etishga bag'ishlanadi. Asosiy e'tibor mustaqillik davri o'zbek nasridagi psixologik realizm, inson ruhiyatining chuqur ifodasi, murakkab ijtimoiy-falsafiy mavzular talqini, modernistik uslubiy izlanishlar hamda zamonaviy yozuvchilarning badiiy topilmalariga qaratiladi. Maqolada zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi namoyandalaridan biri Ulug'bek Hamdam ijodi misolida inson ruhiyatining tasviri, davr ruhi va insoniy munosabatlar alohida tahlil qilinadi.

**Kalit so'zlar:** Zamonaviy o'zbek nasri, psixologik realizm, ruhiyat tasviri, modernizm, davr ruhi, insoniy munosabatlar, falsafiy mushohada, ong oqimi, Ulug'bek Hamdam, "Muvozanat", "Yolg'izlik", "Isyon va itoat".

**Аннотация:** Данная статья посвящена изучению тенденций развития современной узбекской прозы, художественно-эстетической специфики и места в современном литературном процессе. Основное внимание уделяется психологическому реализму, глубокому выражению человеческой психики, интерпретации сложных социально-философских тем, модернистским стилистическим поискам, а также художественным находкам современных писателей. В статье отдельно анализируется изображение человеческой психики, духа эпохи и человеческих отношений на примере творчества одного из ведущих представителей современной узбекской прозы Улугбека Хамдама.

**Ключевые слова:** современная узбекская проза, психологический реализм, изображение психики, модернизм, дух эпохи, человеческие отношения, философская медитация, поток сознания, Улугбек Хамдам, "Гармония", "Одиночество", "Бунт и покорность".



**Abstract:** This article explores the development trends of modern Uzbek prose, its artistic and aesthetic specificity, and place in the modern literary process. The main focus is on psychological realism, deep expression of human psyche, interpretation of complex socio-philosophical themes, modernist stylistic searches, as well as artistic discoveries of modern writers. The article separately analyzes the depiction of human psyche, the spirit of the era and human relations on the example of the work of Ulugbek Hamdam, one of the leading representatives of modern Uzbek prose.

**Keywords:** Modern Uzbek prose, psychological realism, depiction of psyche, modernism, spirit of the era, human relations, philosophical meditation, stream of consciousness, Ulugbek Hamdam, "Harmony," "Loneliness," "Rebellion and Submission."

Zamonaviy o'zbek adabiyotida nasr alohida o'rin tutadi. XX asr oxiri — XXI asr boshlarida o'zbek nasri yangi bosqichga ko'tarildi. Adabiyotshunoslar ta'kidlashicha, bu davrda adabiyotning eng muhim belgisi hech kimga o'xshamaslik, betakrorlik bo'lib qoldi. Bugun adabiyot uchun mavzu emas, odam muhimligi sabab olamshumul mavzular o'rnini odamshumul tasvirlar egallab boryapti. Shu bois bir-biriga o'xshamagan qator tasvir yo'nalishlari yuzaga kelmoqda va bu milliy adabiyotning taraqqiyot darajasini yuksaltirishga xizmat qilyapti. Mustaqillikdan so'ng o'zbek nasri yangi bosqichga ko'tarildi. Milliy qadriyatlarga, ona tiliga, Vatanni sevish, inson psixologiyasiga chuqur murojaat qilishga bo'lgan e'tibor kuchayishi natijasida zamonaviy nasr jiddiy rivojlanishga erishdi. Yaratilgan asarlarda insonni ulug'lash, uning ichki dunyosini, ruhiy kezishmalarini badiiy ifodada o'z aksini topdi. Ayniqsa, zamonaviy o'zbek nasrida psixologik realizm kuchaydi, yozuvchilar inson ruhiyatining murakkab qatlamalarini ochishga intildilar.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, zamonaviy adabiyotshunoslikda nasr umumiy jihatdan o'rganilgan bo'lsa-da, aynan bugungi adabiy jarayondagi nasrning o'ziga xosligi, uning badiiy-estetik xususiyatlari, psixologik realizmning rivojlanishiga alohida e'tibor qaratilmagan. Ushbu maqola mazkur bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Mustaqillik davri o'zbek nasrining rivojlanishi

Mustaqillikning birinchi va ikkinchi o'n yilligi orasida o'zbek nasrimiz tez rivojlana boshladi. So'ngi yillar nasr shakl va mazmun tomondan yangilandi, janr imkoniyatlari kengaydi. San'atkorlar jahon nasrining barhayot tajribalaridan unumli foydalana boshladilar. Bu yillar an'analarga ko'ra ko'plab hikoya, qissa va romanlar dunyoga keldi.

O'zbek nasrining rivojlanishi va yangilanishi mavzu ko'lamining kengayishida yaqqol ko'rinadi. Tarixiy mavzularda asarlar soni ortdi. Buyuk ajdodlarimizning



hayoti, milliy tarixning muhim sahifalari badiiy talqin etila boshladi. Zamonaviy mavzularda ham ko'plab asarlar yaratildi. Bu asarlarda jamiyatdagi turli muammolarni — korrupsiya, mansabdorlarning o'z mansablaridan suiiste'mol qilishi, oilaviy qadriyatlarning parchalanishi, inson ruhiyatining murakkabligi kabi muammolarni keskin tanqid ostiga olindi.

Nasrda janr xilma-xilligi kuchaydi. Hikoya, qissa, roman, esse janrlarida yangi asarlar yaratildi. Ayniqsa, psixologik nasr sohasida katta o'sish kuzatildi. Yangi tasvir uslublari, yangi ifoda vositalari qo'llanila boshladi. Inson psixologiyasiga chuqur murojaat qiluvchi asarlar soni ortdi.

Zamonaviy o'zbek nasrining psixologik yo'nalishlari

Bugungi o'zbek nasrining o'ziga xos tamoyillari va psixologik yo'nalishlari bir necha jihatlar bilan namoyon bo'ladi:

Psixologik realizmning rivojlanishi. Zamonaviy nasrda insonning ichki dunyosi, ruhiy kezishmalar, xotira va orzular chuqur tadqiq etiladi. Bu asarlar o'quvchini qahramonning ruhiy holatini tushunishga, o'zini-o'zi tanishga undaydi.

Ichki monolog va ong oqimi. Zamonaviy nasrda qahramonlar o'ylari, xotiralari, ichki ovozi orqali ularning psixologiyasi ochib beriladi. Bu nasrda yangi ifoda vositasi sifatida qo'llaniladi.

Falsafiy mushohada va metafizik qidirishlar. Zamonaviy yozuvchilar insonning yashash ma'nosi, uning Alloh va jamiyat oldidagi burchi, hayot va o'lim muammolari haqida chuqur o'ylantiradigan asarlar yaratmoqdalar.

Detallarning psixologik ahamiyati. Kichik detallar, mayda hodisalar orqali qahramon ruhiyatining murakkab qatlamalari ochib beriladi. Har bir harakat, har bir so'z qahramon ichki dunyosining aksidir.

Ziddiyatlar nasri. Asarlarda ijtimoiy, shaxsiy, ruhiy konfliktlar bir-biriga chambarchas bog'langan. Bu ziddiyatlar asarning drammatizmini oshiradi va o'quvchini chuqur o'ylantiradi.

Ulug'bek Hamdam ijodi va uning o'rni zamonaviy o'zbek nasrida

Zamonaviy o'zbek nasrining yetakchi namoyandalaridan biri Ulug'bek Hamdam (Hamdamov Ulug'bek Abduvahobovich) 1968-yil 24-aprelda Andijon viloyati, Marhamat tumani, Yuqori Rovot qishlog'ida tug'ilgan. 1988-1993-yillarda Toshkent davlat universitetining o'zbek filologiyasi fakultetida tahsil olgan. 1992-1993-yillarda davlatimiz tashabbusi bilan Turkiyaning Ko'nyo shahrida o'qigan. 1997-yilda "30-yillar o'zbek she'riyatida 'sof lirika' muammosi" mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini yoqlagan. Ilmiy rahbari — filologiya fanlari doktori, professor Umarali Normatov. 1997-2009-yillarda O'zbekiston Fanlar akademiyasining Alisher Navoiy nomidagi Til va Adabiyot institutida katta ilmiy xodim. 2009-yildan beri "Sharq yulduzi" jurnalining bosh muharriri lavozimida ishlamoqda. Ulug'bek



## SOLUTION OF SOCIAL PROBLEMS IN MANAGEMENT AND ECONOMY

International scientific-online conference



Hamdam o'zining ijodiy faoliyati davomida zamonaviy o'zbek nasrining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Adib ham nazm, ham nasrda ijod qiladi. Uning "Tangriga eltguvchi isyon" (2002), "Atirgul" (2006), "Seni kutdim" (2007) she'riy to'plamlari, "Yolg'izlik" (2000), "Muvozanat" (1997, 2003), "Isyon va itoat" (2004), "Sabo va Samandar" (2018), "Uzoqdagi Dilnura" (2010), "Ota" (2019), "Bizdan rozi bo'ling, ota" (2022), "Yaxshiyam sen borsan" (2023), "To'rtko'cha" (2024) kabi nasriy asarlari, "Badiiy tafakkur tadriji" (2003), "Yangilanish ehtiyoji" (2007), "Jahon adabiyoti: Modernizm va postmodernizm" (2020) ilmiy asarlari nashr etilgan.

Falsafiy-ruhiy to'lg'anishlar ustuvorligi. Adibning asarlarida odatdagiday boshi va oxiri bor voqealar, sabab va oqibat doirasida harakatlanadigan qahramonlar tasvirlanmaydi. Bir qarashda ijtimoiy salmoqdan mahrum mayda tafsilotlarning adoqsiz silsilasi aks etganday tuyulsa-da, bu tafsilotlar zamirida chuqur psixologik va falsafiy ma'no yotadi. O'quvchi bu ma'noni o'zi topishi kerak bo'ladi.

"Muvozanat" roman-mushohada yo'siniga mansub bo'lganligi bois asar badiiy to'qimasida ijtimoiy-falsafiy o'ylar, psixologik kechinmalar ko'lamining berilishi epik xronotop yoki qahramonlarora muloqotdan ustunlik qiladi. Unda zamondoshlarimizning g'oyat chigal va murakkab taqdir yo'li XXI asrning tezkor taraqqiyot maromi prizmasi orqali chiziladi. Asarning kompozitsion markazida turgan Yusufning shirin bolalik xotiralari va so'nggi o'n besh-yigirma yillik iztiroblar shiddati og'ushidagi hayoti, azoblar komidagi ruhiy kechinmalari Yusuf ota va ona, Yusuf-Muhammadjon aka, Yusuf-Amir, Yusuf-Oygul, Yusuf-Said, Yusuf-Mirazim, Yusuf-Zahro va boshqa shaxslararo munosabatlar o'rami orqali ochila boradi.

Insonning ichki dunyosiga chuqur murojaat. Ulug'bek Hamdam asarlarida qahramonlarning ichki dunyosi, ruhiy kezishmalar, xotira va orzular chuqur tadqiq etiladi. Bu asarlar o'quvchini qahramonning ruhiy holatini tushunishga, o'zini-o'zi tanishga undaydi. "Yolg'izlik" qissasida insonning ruhiy olami, uning rango-rang tuyg'ularining tajassumini yoritish borasida katta yutuqlarga erishilganligi yaqqol namoyon bo'ladi. Ijodkor yolg'izlikni asar sarlavhasidan motiv darajasiga olib chiqqanligi asarda aks etadi.

"Muvozanat" romanida ruhiyat va insoniy munosabatlar

"Muvozanat" romani Ulug'bek Hamdam ijodining eng yorqin namunalaridan biri hisoblanadi. Bu asar ilk bor "Jahon adabiyoti" jurnalida e'lon qilinganidan buyon o'tgan yigirma yildan ortiq vaqt ichida qayta-qayta bosilgan, ko'p o'qilgan va bahs-munozaralarga sabab bo'lgan. Bunga mazkur romanning dolzarb va qiziqarli g'oyaviy-badiiy mazmunga ega ekanigina emas, balki Istiqlol davri o'zbek romanchiligiga xos uslubiy izlanishlarning yetakchi tamoyillarini o'zida aks ettirganligi ham sabab bo'ldi.



Asar bosh qahramoni Yusuf muayyan qiyinchiliklar-u muammolarga duch keladi, ko'ngil muvozanatiga erisholmay iztirob chekadi, lekin ularni ruhiy-ma'naviy jihatdan yengib o'tadi. Bir ijtimoiy-siyosiy tuzumdan ikkinchisiga o'tish jarayoni insonlar ongida bir xilda silliq kechadi, deb bo'lmaydi. Yusufning bu jarayondagi ruhiy kezishmalari, iztiroblari, umid va tushkunliklari chuqur psixologik tahlil orqali tasvirlangan.

Yozuvchi "Muvozanat" va undan keyin yaratilgan barcha romanlarida o'zbek romanchilik maktabida shakllantirilgan adabiy tajribalardan unumli foydalangan. U Qodiriy va Cho'lpondan obrazlarni milliy ruhiyat o'ramida tasvirlash mahoratini o'zlashtirgan bo'lsa, Oybekdan timsollar xatti-harakatini ijtimoiy hayot bilan asoslashni, Abdulla Qahhordan personajlar tasviridagi aniqlikni, Odil Yoqubovdan qahramonlar ruhiy dunyosini shiddatli o'ylar og'ushida yorqinroq ko'rsatishni o'rgangan. Biroq Ulug'bek Hamdam ustoz adiblarning an'analarni o'zlashtirish bilangina kifoyalaniq qolganida, asarlari kitobxonlar e'tiborini qozonmagan, boshqa ayrim asarlar qatori unutilgan bo'lardi. U adabiy an'analarga ijodiy munosabatda bo'ldi. Ulardagi diqqatga loyiq qirralarni bugunning qarashlari, o'zining badiiy-estetik meni, iste'dodining betakror yulqini bilan nurlantira oldi.

"Yolg'izlik" qissasida yolg'izlik motivi

"Yolg'izlik" qissasi Ulug'bek Hamdam ijodining boshqa bir yorqin namunasidir. Bu asar 2000-yilda nashr etilgan va zamonaviy o'zbek qissachiligida yangi o'ziga xos o'rin egallagan. Qissada insonning ruhiy olami, uning rango-rang tuyg'ularining tajassumini yoritish borasida katta yutuqlarga erishilganligi yaqqol namoyon bo'ladi.

Ijodkor yolg'izlikni asar sarlavhasidan motiv darajasiga olib chiqqanligi asarda aks etadi. Yolg'izlik bu yerda nafaqat fizikaviy holat, balki insonning ichki kezishmasi, uning o'zidan va atrofdan begonalashish jarayonidir. Qissada bu motiv qahramonning har bir harakati, har bir o'yida, har bir tuyg'usida aks etadi.

Asar syujetsizligi, ong oqimi uslubida yozilganligi bilan ajralib turadi. Bu qissada voqealar emas, balki qahramonning ichki dunyosi, uning ruhiy holati ustuvorlik qiladi. Yozuvchi bu uslub orqali o'quvchini qahramonning ichki olamiga kirib, uning yolg'izligini tushunishga undaydi.

"Isyon va itoat" romanida ijtimoiy-falsafiy mavzular

"Isyon va itoat" romani 2004-yilda nashr etilgan va bugungi adabiy hayotning muhim voqealaridan biri bo'ldi. Bu asarda yozuvchi ijtimoiy-falsafiy murakkab mavzularni, insonning jamiyat oldidagi burchi, uning o'ziga xosligi va erkinligi muammolarini ko'taradi.

Romanda isyon va itoat kabi ziddiyatli tushunchalar orqali insonning ichki dunyosi, uning ruhiy kezishmalari tasvirlanadi. Qahramonlar o'rtasidagi



munosabatlar, ularning o'zaro ta'siri, bir-birini tushunish va tushunmaslik jarayonlari chuqur psixologik tahlil orqali ifodalanadi.

"Sabo va Samandar" romanida milliy ruhiyat

"Sabo va Samandar" romani 2018-yilda nashr etilgan va tarixiy mavzularda yaratilgan asarlardan biri hisoblanadi. Bu asarda yozuvchi milliy ruhiyat, tarixiy xotira, ajdodlar merosi mavzularini ko'taradi.

Romanda tarixiy shaxslar hayoti, ularning ruhiy kezishmalari, vatanparvarlik tuyg'ulari, milliy o'zlikni saqlash g'oyalari badiiy talqin etiladi. Yozuvchi tarixiy voqealarni emas, balki o'sha voqealar ta'sirida shakllangan inson ruhiyatini, ularning ichki dunyosini tasvirlashga e'tibor qiladi.

Bugungi o'zbek nasrida ba'zi muammolar ham mavjud:

G'oya ustivorligi. Ba'zi asarlarda g'oya ustivorligi seziladi, badiiy qimmat ikkinchi o'rinda qoladi. Bu asarlarning badiiy ta'sirchanligini pasaytiradi.

Taqlidchilik va sayozlik. Ba'zi zamonaviy asarlarda taqlidchilik, sayozlik kuzatiladi. Bu asarlar chuqur psixologik tahlildan mahrum bo'ladi.

Muhokamalar va taqrizlarning kamchiligi. Zamonaviy nasr asarlariga adabiy tanqidiy muhokamalar, taqrizlar juda kam e'lon qilinayotgani afsuski, bugungi kun muammolaridan biriga aylanib qoldi.

Yosh ijodkorlarni qo'llab-quvvatlash. Kelajakda yosh ijodkorlarimiz mohirona qalam tebratishlari uchun hozirdanoq imkon yaratmoq lozim. Har bir tuman markazlarida ijodxonalar tashkil qilinishi, yosh qalamkashlar to'garaklari doimiy ravishda faoliyat yuritishi, bu albatta har bir ijodkorni ilhomlantiradi, mehnatga chorlaydi va kun kelib ulardan shoh asarlar chiqishi muqarrar

## **Xulosa**

Bugungi o'zbek nasri mustaqillikdan oldingi davrga nisbatan mavzuiy jihatdan boyib, badiiy-estetik jihatdan yangilandi, inson psixologiyasiga chuqurroq murojaat qila boshladi. Zamonaviy nasr nafaqat badiiy qimmatga ega, balki jamiyatda insonni ulug'lash, uning shaxsiyati va ruhiy holatini hurmat qilish kabi muhim fazilatlarni shakllantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Ulug'bek Hamdam ijodi zamonaviy o'zbek nasrining rivojlanishiga muhim hissa qo'shgan. Uning asarlari psixologik realizm, inson ruhiyatining chuqur ifodasi, falsafiy-ruhiy to'lg'anishlar, modernistik uslubiy izlanishlar jihatlari bilan ajralib turadi. "Muvozanat" romani adibning eng yorqin namunalaridan biri bo'lib, unda insonning ichki dunyosidagi ziddiyatlar, uning jamiyat bilan munosabatlari, ruhiy kezishmalari dramatik tarzda tasvirlangan. "Yolg'izlik" qissasi esa ong oqimi uslubida yozilgan, syujetsiz asar sifatida zamonaviy qissachilikka yangi o'ziga xos o'rin egallagan.

Ayniqsa, quyidagi xususiyatlar alohida ta'kidlanishi lozim:



1. Falsafiy-ruhiy to'lg'anishlar ustuvorligi;
2. Insonning ichki dunyosiga chuqur murojaat;
3. Ong oqimi va ichki monolog usullarining ustalik bilan qo'llanilishi;
4. Tuyg'ular jilvasining ranginlashuvi;
5. Metafora va timsollarning keng qo'llanilishi;
6. Dialog san'ati va tilning psixologik funksiyasi;
7. Milliy an'analar va zamonaviy uslublarning uyg'unlashuvi.

Kelajakda nasrda zamonaviy texnologiyalar, global muammolar, sun'iy intellekt kabi yangi mavzular ham yoritilishi, psixologik realizm yanada rivojlanishi lozim. Nasr doim insonga murojaat qiladi, uning qalb sirlarini ochishga intiladi, insoniy o'zaro munosabatlar mohiyatini anglashga harakat qiladi, bu inson tarixiy yoki zamonaviy bo'lishining ahamiyati yo'q.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Solijonov Y. Hozirgi adabiy jarayon. — T.: "Innovatsiya-Ziyo", 2020.
2. Isokova M. Dramaturg mahorati. — T., 2021.
3. Tashmuxammedova L. Adabiyot tarixi va nazariyasi.
4. To'laxo'jayova M., Qozoqboev T. Drama nazariyasi. — T.: Fan va texnologiyalar markazi, 2014.
5. Abdusamatov H. Drama nazariyasi. — T.: G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2000.
6. Tursunov T. Sahna va zamon. — T.: Yangi asr avlodi, 2007.
7. Ikromov H. Davr va teatr. — T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat taxiliy nashriyoti, 2009.
8. Tursunov T. O'zbek teatr tarixi. — T.: Yangi asr avlodi, 2007.
9. Bayandiev T. San'at masalalari — teatrshunos nigohida. — T.: Fan va texnologiyalar markazining bosmaxonasi, 2009.
10. O'zbek adabiyotida dramaturgiya. *Oriental Renaissance*, 2022, 2 (5).
18. Yo'ldosh Q., Yo'ldosheva M. Badiiy tahlil asoslari. — T.: Kamalak, 2016.
19. Yo'ldoshev K. Modernizm: ildiz, mohiyat va belgilar. //Yoshlik, 2014, 9-son.
20. Yoldoshev K. Azobli tuyg'u va beqaror ruh. //Issiq so'z. T.: Yangi asr avlodi, 2006.